



INSON XUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI. HUQUQIY VOSITALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10654343>

Ma'rufaliyev Ahrorbek Avazbek o'g'li

Toshkent shahar IBB huzuridagi Tergov boshqarmasi,

Korrupsiya, firibgarlik va iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish bo'limi katta tergovchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Inson huquqlari – shaxsning hayotiy ehtiyoji, yashashi, kamolot topishi, uning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan aloqasi uchun zarur bo'lgan xususiyatlari haqida, Davlat xizmatlarini ko'rsatish va intellektual mulkning huquqiy himoyasi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda tizim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish haqida, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

inson huquqlari, konstitutsiya, xizmat ko'rsatish, xususiyat, imkoniyat, tizim, islohot, ta'minlash.

АННОТАЦИЯ

В данной статье права человека – это жизненные потребности человека, живущего, зреющего, характеристики, необходимые для его взаимоотношений с обществом, государством и другими лицами, возможности рациональной системы в реализации единой государственной политики в сфере предоставления государственных услуг и правовая охрана интеллектуальной собственности. Об использовании в Конституции Республики Узбекистан упоминаются основные права, свободы и обязанности человека и гражданина.

Ключевые слова

права человека, конституция, служба, особенность, возможность, система, реформа, обеспечение.

ABSTRACT

In this article, Human rights are the vital needs of a person, living, maturing, the characteristics necessary for his relationship with society, the state and other persons, rational system capabilities in the implementation of a unified state policy in the field of providing public services and legal protection of intellectual



property. about use, the Constitution of the Republic of Uzbekistan mentions the basic rights, freedoms and duties of people and citizens.

Key words

human rights, constitution, service, feature, opportunity, system, reform, provision.

So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta‘minlash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan qonunchilik hujjatlarining mazmun va mohiyatini tushuntirish, joylarda aholini tashvishga soluvchi huquqiy muammolarni hal etish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish, o‘z faoliyati yuzasidan jamoatchilikka tizimli ravishda ma‘lumotlar taqdim etish masalalarida adliya organlari va muassasalarining roli va mas‘uliyati sezilarli ravishda oshmoqda.

Shu bilan birga, “Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasini ro‘yobga chiqarish adliya organlari tizimida ma‘muriy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo qilmoqda.

Davlat xizmatlarini ko‘rsatish va intellektual mulkning huquqiy himoyasi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda tizim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu sohalarda muvofiqlashgan faoliyatni ta‘minlash hamda mavjud ma‘muriy tuzilmalarning yaxlit vertikal boshqaruvini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari - insonga bekamu ko‘st yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda o‘z imkoniyat va talablarining amalga oshirilishini ta‘minlovchi huquqiy maqom. Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosidir. O‘zR Konstitutsiyasida qayd etilgan huquq va erkinliklar: qonunlarning mazmuni va qo‘llanilishiga hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi; O‘zbekistonning har bir fuqarosiga, uning jinsi, irqi, millati, tili, diniy e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, maslagi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan qat‘i nazar, inson huquqlari va erkinliklari buzilmasligini, sud yo‘li bilan himoya qilinishini kafolatlaydi. Konstitutsiya barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslangan holda, o‘zgalarning huquqlariga hurmat bilan qarash tamoyillarini, o‘zgalarning qonuniy manfaatlarini, huquq va erkinliklarini buzish hisobiga o‘z huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishga yo‘l qo‘yilmaslikka, ijtimoiy adolat va hamjihatlikni ta‘minlashga qaratilgan.

Inson huquqlari – shaxsning hayotiy ehtiyoji, yashashi, kamolot topishi, uning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan aloqasi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlaridir.

Inson huquqlari – bu insonning tug‘ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir. Ushbu universal huquqlar millati, jinsi, irqi yoki etnik kelib chiqishi, rangi, dini, tili yoki boshqa huquqiy maqomidan qat‘i nazar, hech qanday kamsitishlarsiz barcha uchun xosdir. Inson huquqlari yashash huquqi kabi eng asosiy huquqlardan tortib, munosib turmush tarzini ta‘minlashga xizmat qiladigan ta‘lim olish, mehnat qilish yoki ijtimoiy ta‘minot olish kabi huquqlariga qadar barcha huquqlarni qamrab oladi.

Inson huquqlari munosib hayot kechirish va insoniy salohiyatimizni rivojlantirishga imkon berish uchun zarur bo‘lgan barcha insoniy fazilatlar uchun muhimdir. Inson huquqlarini ta‘minlash qo‘rquv, ta‘qib yoki kamsitishsiz jamiyatda yashash uchun katta ahamiyatga ega.

Inson huquqlari quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- Universallik – barcha bir xil darajada inson huquqlariga ega;
- Ajralmaslik – ularni hech qachon tortib olish mumkin emas, lekin ba‘zida ularni cheklash mumkin – masalan, agar shaxs qonunni buzsa yoki davlat xavfsizligi masalalari uchun;
 - Bo‘linmaslik – ma‘lum bir huquqlar to‘plamidan ikkinchisiz to‘liq foydalanish mumkin emas;
 - O‘zaro bog‘liqlik – ma‘lum bir huquqni berish yoki uni buzish boshqa huquqlarga ta‘sir qilishi mumkin;
 - Tenglik – barcha insonlar o‘zlarining qadr-qimmati va huquqlarida tengdir;
 - Kamsitmaslik – har bir inson irqi, tanasining rangi, jinsi, tili va boshqa xususiyatlaridan qat‘i nazar inson huquqlariga ega.

Inson huquqlari va erkinliklari tizimi o‘z yaralish ibtidosi va rivojlanish mantiqiga ega. Adabiyotlarda „inson huquqlarining uch avlod“ bosqichi haqida ko‘rsatilgan. Ular quyidagilardan iborat.

- Inson huquqlarining „birinchi avlodi“ – fuqarolik va siyosiy huquqlar hisoblanadi.
- Inson huquqlarining „ikkinchi avlodi“ – bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta‘siri ostida shakllandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida sanoati rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiyot sohasida sezilarli siljishlar ro‘y berdi.
- Inson huquqlarining „uchinchi avlodi“ – „hamjihatlik huquqlari“ deb atalib, ular davlatlardan ustun turuvchi va kollektiv xarakterga ega. Umumiy e‘tirof etilgan qoidaga ko‘ra bu huquqlar: tinchlikka bo‘lgan huquq, bexavotir tabiiy atrof muhitga bo‘lgan huquq, insoniyatning iqtisodiy va madaniy merosidan foydalanish huquqi va boshqalar.



Inson huquqlari – insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda da’volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga bo‘lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoqlarga, zo‘ravonlikka, inson sha’ni yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o‘z sha’ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e’tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog‘liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma inson huquqlari nisbiy bo‘lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to‘xtatib qo‘yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq Inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to‘xtatishga (bekor qilishga) yo‘l qo‘yilmaydi.